



# O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 2 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	<b>QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI</b> <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	5
2.	<b>SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI</b> <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	<b>ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH</b> <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	<b>SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI</b> <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	18
5.	<b>MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH</b> <i>Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	21
6.	<b>O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI</b> <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	<b>PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI</b> <i>Yo'ldoshoval Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	<b>BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI</b> <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	<b>O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI</b> <i>Iminova Nurjahon Qodirjon qizi</i>	34
10.	<b>QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH</b> <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	<b>СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА</b> <i>Муминова Ансора Улдузбек кизи</i>	42
12.	<b>СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ</b> <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диёра Улдузбек кизи</i>	45
13.	<b>O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI</b> <i>Madiyev Abbas Nosirovich</i>	50
14.	<b>QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI</b> <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	<b>O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI</b> <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	<b>KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI</b> <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	<b>TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI</b> <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	<b>O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI</b> <i>Kuldashev Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	<b>BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GAROVIDIR</b> <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	<b>MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI</b> <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	<b>A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK</b> <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	<b>IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI</b> <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	<b>XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURSLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI</b> <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	<b>НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА</b> <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	<b>O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI</b> <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	<b>O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI</b> <i>Berdibayev Fayzulla Zariqbayevich</i>	95
27.	<b>ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI</b> <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	<b>SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI</b> <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	<b>RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI</b> <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	<b>TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI</b> <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	<b>SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLARI</b> <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	<b>METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLARI</b> <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	<b>AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET</b> <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	<b>UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI</b> <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	<b>СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ</b> <i>Ахоров Зариф Орипович</i>	123
36.	<b>RAQAMLI SOLIQ TIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI</b> <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	<b>SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA</b> <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	<b>TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQRISH BOSQICHLARI</b> <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	<b>RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH</b> <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136

## **“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI**

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



## O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIIYA MUAMMOLARI

Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi

Osiyo texnologiyalar universiteti, magistranti  
Email: [ismatovashoxsanam284@gmail.com](mailto:ismatovashoxsanam284@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida tashqi mehnat migratsiyasining shakllanish sabablari, iqtisodiy mexanizmlari, pul o'tkazmalarining makro va mikroiqtisodiy ta'siri hamda mehnat migrantlarining qaytishidan keyingi reintegratsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqot desk research, sifatli fokus-guruh muhokamalari va rasmiy statistik ma'lumotlarga asoslangan holda olib borildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, mehnat migratsiyasi qisqa muddatda kambag'allikni yumshatuvchi iqtisodiy mexanizm sifatida namoyon bo'lsa-da, uzoq muddatda inson kapitalining eskirishi, qayta migratsiya siklining kuchayishi va hududiy iqtisodiy notuqanosibliklarni chuqurlashtiruvchi omilga aylanmoqda.

**Kalit so'zlar:** mehnat migratsiyasi, pul o'tkazmalari, inson kapitali, reintegratsiya, qayta migratsiya, O'zbekiston iqtisodiyoti.

**Abstract:** This article analyzes the reasons for the formation of external labor migration in the Republic of Uzbekistan, its economic mechanisms, the macroeconomic and microeconomic impact of remittances, and the processes of reintegration of labor migrants after their return. The research was conducted based on desk research, high-quality focus group discussions, and official statistical data. The results show that, although labor migration manifests itself in the short term as an economic mechanism for alleviating poverty, in the long term it becomes a factor exacerbating the depreciation of human capital, the intensification of the re-migration cycle, and territorial economic imbalances.

**Keywords:** labor migration, remittances, human capital, reintegration, re-migration, economy of Uzbekistan.

**Абстрактный:** В данной статье анализируются причины формирования внешней трудовой миграции в Республике Узбекистан, экономические механизмы, макро- и микроэкономическое влияние денежных переводов, а также процессы реинтеграции трудовых мигрантов после их возвращения. Исследование проводилось на основе desk research, качественных обсуждений в фокус-группах и официальной статистики. Результаты показывают, что, хотя трудовая миграция в краткосрочной перспективе проявляется как экономический механизм, смягчающий бедность, в долгосрочной перспективе она становится фактором, усугубляющим износ человеческого капитала, усиление цикла ремиграции и региональные экономические диспропорции.

**Ключевые слова:** трудовая миграция, денежные переводы, человеческий капитал, реинтеграция, ремиграция, экономика Узбекистана.

### Kirish (Введение/Introduction).

So'nggi yigirma yillikda mehnat migratsiyasi O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy tizimining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Jadal demografik o'sish, ichki mehnat bozorining sig'imining cheklanganligi va ish haqi tafovutlari tashqi migratsiyani aholining faol qatlamlari uchun muqobil emas, balki majburiy iqtisodiy strategiyaga aylantirdi. Migratsiya to'g'risida qaror qabul qilish bir qarashda faqat moliyaviy sabablarga borib taqaladi, chuquqroq tahlil qilinganda esa sabablar ko'pligini ko'rishimiz mumkin. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, migratsiyaga undovchi eng ko'p uchraydigan omillar quyidagilardir: daromadlarning pastligi, munosib ish o'rinlarining yo'qligi, munosib hayot kechirish istiqbollarning yo'qligi, ta'lim va malaka darajasining pastligi, iqtisodiyotning ayrim kasblari va tarmoqlari bo'yicha ish haqi o'rtasidagi tafovutning yuqoriligi va hokazolar. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik bo'limi ma'lumotlariga ko'ra, migrantlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. 1990-yilda migrantlar soni taxminan 1,44 million kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich deyarli 1,5 barabarga oshib, taxminan 2,11 million kishiga yetdi. Bu holat so'nggi o'n yilliklarda migratsiya jarayonining yuqori sur'atlarda kechayotganini ko'rsatmoqda. [1]

### Adabiyotlar sharhi (Обзор литературы/Literature review)

Ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar mehnat harakatchanligi va migratsiya jarayonlarining nazariy va amaliy muammolarini o'rganishgan. Migratsiya jarayonlarining nazariy jihatlarini Smit A., Engels F., Keynes J., Piore M., Simon D., Baral R., Jackson D., Malthus T., Revenstein E., Marks K., Lenin V., Herman G., Valentey I., Denienko M., Iontsev V., Perevntsev B., Rybakovsky L., Kozhevnikov N., Kaufman A., Ryazantsev S., Maltsev N., Xorev B. va boshqalarning asarlarining mavzusi hisoblanadi.

Mehnat bozori va mehnat migratsiyasining ayrim jihatlarini rossiyalik olimlar Umarov X.U., Ulmasov R.U., Islomov S.I., Babaev A.A., Sultonov Z.S., Djabarov A.J. tomonidan o'rganilgan. Mamadbekov M.Sh., Amonova D.S., Islomov F.S., Usmonova T.J., Babadjanov R.M., Xojiboyeva A.G., Do'stboyev Sh.D., Djonmamadov Sh.B., Hakimov P.Sh., Odinaev K.S., G'aniyev T.B. va boshqalar ham bu sohada salmoqli hissa qo'shishgan. Muhim ilmiy nashrlarga qaramay, mehnat harakatchanligi va tashqi mehnat migratsiyasining ko'plab jihatlarini - xususan, mehnat migrantlarini ijtimoiy himoya qilish, ularni qabul qiluvchi mamlakatlarda moslashtirish, mehnat migrantlari va ularning oilalariga tibbiy yordam ko'rsatish, migratsiya jarayonlarini samarali davlat tomonidan tartibga solish, tibbiy sug'urta, tillarni o'qitish, qabul qiluvchi mamlakatlardagi qonunlar va boshqalar - yetarlicha o'rganilmaganligicha qolmoqda. Bundan tashqari, mehnat bozorining holati va mehnat migratsiyasining tabiati va tuzilishi doimiy ravishda o'zgarib turadi. Shuning uchun, mehnat bozorining yangi voqeliklari va sharoitlariga muvofiq mehnat harakatchanligi va migratsiya jarayonlarini o'rganishga ob'ektiv ehtiyoj mavjud.

### Tadqiqot metodologiyasi (Methods/Методы).

Mazkur tadqiqot ishida xalqaro va mahalliy tadqiqotchilarning tadqiqotlariga, mehnat harakatchanligini o'rganish va migratsiya jarayonlarini tartibga solishning metodologik yondashuvlari bosqichma-bosqich tahlil qilingan. Mehnat migratsiyasini tartibga solishga oid xalqaro va milliy qonunlar hamda olib borilgan islohotlar va uning natijalari tadqiq qilingan. Tadqiqot davomida tizimli tahlil va guruhlash, statistik tartibga solish, taqqoslash usullaridan foydalanildi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты/ Analysis and results).

O'zbekistondagi migratsiya holati haqidagi hisobotlardan (IOM Uzbekistan, 2024) ma'lum bo'lishicha, tashqi mehnat migratsiyasining asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

- Rossiya Federatsiyasi;
- Qozog'iston Respublikasi;
- Turkiya;
- Birlashgan Arab Amirliklari;
- Koreya Respublikasi;
- Yevropa Ittifoqi (YI) mamlakatlari va boshqa davlatlar.

Rossiya Federatsiyasi O'zbekistondan kelgan mehnat muhojirlarining asosiy yo'nalishi bo'lib qolmoqda, biroq Rossiyaning ko'plab hududlarida 2024-yil bahorida ayrim sohalarda migrantlarni ishga joylashtirishga cheklolvar kiritildi.

So'nggi 10 yil ichida migratsiya geografiyasi sezilarli darajada kengayib, Buyuk Britaniya, Vengriya, Slovakiya kabi davlatlar bilan migratsiya sohasida hamkorlik o'rnatildi. Yevropa Ittifoqida asosiy yo'nalish mamlakatlari Polsha, Litva va Germaniya hisoblanadi. Masalan, 2023-yilda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari O'zbekiston fuqarolariga 30 339 ta yashash guvohnomasi bergan bo'lib, shundan 18 932 tasi mehnat faoliyati bilan bog'liq va asosan Polsha hamda Litva tomonidan rasmiylashtirilgan. Ammo 2024-yilda Yevropa Ittifoqidan chiqarib yuborish to'g'risidagi buyruqlarni olgan o'zbekistonlik muhojirlar soni sezilarli darajada ko'paydi.

Migratsiya va rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy adabiyotlarda "migration-development nexus" doirasida izohlanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra migratsiya qisqa muddatda daromadlarni barqarorlashtirishi mumkin, biroq uzoq muddatda iqtisodiy qaramlik xavfini kuchaytiradi, oilaviy muhit buzilishiga ba'zi hollarda farzand tarbiyasidagi salbiy oqibatlar bilan namoyon bo'ladi.

#### 1-jadval.

Yillar kesimida Markaziy Osiyo va O'zbekistonlik xalqaro migrantlar soni<sup>1</sup>


Yillar	Erkaklar	Ayollar	Jami
<i>Markaziy Osiyo</i>			
1990	2 936 899	3 143 996	6 080 895
1995	3 120 892	3 274 402	6 395 294
2000	3 261 027	3 413 766	6 674 793
2005	3 503 671	3 663 626	7 167 297
2010	3 630 674	3 807 745	7 438 419
2015	3 369 113	3 536 543	6 905 656
2020	3 210 416	3 398 764	6 609 180
2024	3 050 692	3 281 198	6 331 890
<i>O'zbekiston</i>			
1990	692 658	756 748	1 449 406
1995	811 435	843 586	1 655 021
2000	910 975	902 713	1 813 688
2005	1 008 647	937 675	1 946 322
2010	1 090 228	983 055	2 073 283
2015	1 086 443	975 293	2 061 736
2020	1 085 859	1 006 882	2 092 741
2024	1 083 770	1 030 710	2 114 480

Migrant erkakning uzoq vaqt oiladan uzoqda bo'lishi migratsiya davrida oilaviy rollarning o'zgarishi, munosabatlar va majburiyatlarining qayta qurilishiga va buning natijasida turli salbiy oqibatlarga olib kelishi kuzatilgan. Agar migrant nafaqat moliyaviy, balki ma'naviy jihatdan ham oilani qo'llab-quvvatlay olsa, rollar va munosabatlar saqlanib qoladi. Biroq, oila qiyin ahvolda tushib qolganda munosabatlar keskinlashishi yoki butunlay buzilishi mumkin.

Pul o'tkazmalari mamlakat iqtisodiyotida ham muhim stabilizatsiya funksiyasini bajaradi. Shu bilan birga, ularning asosiy qismi iste'molga yo'naltirilgani sababli investitsion samaradorlikka bevosita ta'siri mavjud. 2023-yilda past va o'rta daromadli mamlakatlarga pul o'tkazmalari 2022-yilga nisbatan 0,7 foizga ko'payib, 656 milliard AQSH dollariga yetdi. Pul o'tkazmalari oqimi 2023-yilda mazkur mamlakatlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimidan 270 milliard AQSH dollaridan ortiq bo'ldi<sup>2</sup> [2].

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra 2024-yilda O'zbekistonga kelib tushgan pul o'tkazmalari o'tgan yilga nisbatan 30 foizga yoki 3,4 milliard dollarga oshib, 14,8 milliard dollarni tashkil etdi. Jumladan, mablag'larning 77 foizi Rossiyadan (11,5 milliard dollar) kelib tushgan

bo'lib, bu 2023-yilga nisbatan 29 foiz ko'pdir. Ushbu o'tkazmalarning qolgan qismi Qozog'iston (795 million dollar), AQSH (577 million dollar), Janubiy Koreya (534 million dollar), Turkiya (405 million dollar), Buyuk Britaniya (135 million dollar) va boshqa davlatlardan amalga oshirilgan (1-rasm). Umuman olganda, pul o'tkazmalari hajmining yuqori sur'atlarda o'sishi ichki iste'molni va valyuta bozorida barqarorlikni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yakunlari bo'yicha mamlakat aholisining umumiy daromadlarida chet eldan kelgan o'tkazmalar ulushi 16,5 foizdan 21 foizgacha oshdi (ayrim hududlarda bu ko'rsatkich 30 foizdan yuqori) [3].



1-rasm. 2020-2024-yillarda O'zbekistonga pul o'tkazmalari dinamikasi, mln. doll. AQSH<sup>3</sup>

Xalqaro va mahalliy statistika ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston jahon mehnat bozorida muhim ishchi kuchi eksportchisi hisoblanadi va Markaziy Osiyoda eng ko'p mehnat migrantlariga ega mamlakat sanaladi. Mehnat migrantlarining aksariyati yuqori ish haqi va qulay viza siyosati tufayli Rossiya va Qozog'istonga yo'l olmoqda. Migratsiya agentligi (MA) hisobotiga ko'ra, 2024-yil oxiriga kelib xorijda ro'yxatdan o'tgan o'zbekistonlik mehnat migrantlari soni taxminan 1,35 million kishini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024-yil boshidagi 2 million mehnat muhojiriga nisbatan qariyb 34 foizga kamayganini ko'rsatadi. Buning asosiy sabablari Rossiya Federatsiyasidagi siyosiy vaziyat, migrantlar uchun qonunchilik talablarining murakkablashuvi va, shubhasiz, migrantlar uchun to'lovlarning oshishi hamda ish haqining pasayishi bo'lishi mumkin.


Xalqaro migratsiya tashkilotining hisobotlariga ko'ra, norasmiy migrantlar orasida sog'liq muammolari keng tarqalgan. Buning asosiy sababi ularning ko'pincha sifatsiz turmush sharoitlarida yashashga majbur bo'lishidir, bu esa jismoniy va ruhiy salomatlik bilan bog'liq jiddiy muammolarga olib keladi. Ushbu vaziyat, ayniqsa Rossiya kabi hududlarda, migrantlar orasidagi yuqori o'lim darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekistonlik migrantlarning aksariyati norasmiy sektorlarda ishlaydi. Ular ko'pincha asosiy huquq va imtiyozlardan foydalana olmaydilar, bu esa shundoq ham og'ir bo'lgan turmush sharoitlarini yanada yomonlashtiradi. Bu xatarlarga qabul qiluvchi mamlakatlarda yetarli ijtimoiy himoyaning yo'qligi va ekspluatatsiyaga moyillik olib keladi [4].

Migratsiya jarayonida ko'plab migrantlar o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlamasligi natijasida bilim va malakalarining eskirishi kuzatiladi. Bu holat milliy iqtisodiyot uchun yashirin yo'qotish hisoblanadi. Ko'p hollarda faoliyatini norasmiy olib borishda va natijada huquqlarini buzilishiga olib keladi. Amaldagi ijtimoiy himoya tizimlari ko'pincha migrantlarning o'ziga xos sharoitlari va ehtiyojlarini hisobga olmaydi, natijada ular yetarli darajada qamrab olinmaydi. Mehnat migratsiyasining sohalari bo'yicha taqsimlanishi shuni ko'rsatadiki, qurilish sohasida band bo'lganlar soni (39,6%) boshqa barcha yo'nalishlarga qaraganda ancha yuqori (2-rasm). Buning sababi qurilish sohasida til bilimi va rasmiy malaka talab qilinmasligi bilan izohlanadi. Haydovchilik, santexnika, payvandlash va elektr ishlari ham muhojirlar orasida keng tarqalgan. Bu sohalarda ko'pincha norasmiy ravishda, mehnat shartnomasiz, ba'zan hatto ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat yuritadi, chunki ular xavfli va sog'liq uchun zararli ishlar hisoblanadi [5].

<sup>1</sup> Manba: International Migrant Stock 2024: Origin <https://www.un.org/development/desa/pd/content/international-migrant-stock>

<sup>2</sup> <https://www.migrationdataportal.org/resource/key-global-migration-figures>

<sup>3</sup> <https://cbu.uz/upload/medialibrary/a53/wn6gcejpkxphv2v4guajin4x01h7iyxa/Yillik-hisobot-2024.pdf>



2-rasm. Migrantlarning xorijdagi bandlik tarmoqlari (2022)<sup>4</sup>, (%)

Migratsiya agentligining ma'lum qilishicha, 2024 yilning yanvar-oktyabr oylari davomida 300 mingga yaqin mehnat muhojiri O'zbekistonga qaytib kelgan. Bu holatda migrantlar va mahalliy iqtisodiyot uchun murakkab oqibatlariga olib kelishi, shuningdek, mehnat bozori va ijtimoiy tuzilmalarga ta'sir ko'rsatishi bilan tavsiflanadi. Qaytib kelganlarning jamiyatga qayta qo'shilishi ish o'rinlari uchun raqobatni kuchaytirishi va mahalliy resurslarga bosim o'tkazishi mumkin, ayni paytda ularga chet elda orttirgan ko'nikma va tajribalar orqali iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi. Qaytib kelgan mehnat migrantlarining ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ta'sir etuvchi asosiy omillarga ta'lim darajasi, yoshi va ijtimoiy aloqalari kabi shaxsiy xususiyatlar, shuningdek, vatani va mehnat qilgan mamlakatdagi keng qamrovli iqtisodiy va tuzilmaviy sharoitlar kiradi [6].

Malakali migrantlarning xorijdagi tajribasi ularning ish topish va qaytgandan so'ng daromad olish imkoniyatlarini oshiradi. Biroq, ular qaytgach ishsizlik, kamsitish va qayta moslashishda yetarli qo'llab-quvvatlanmaslik kabi muammolarga duch kelishlari ham mumkin. Qaytgan migrantlarning ichki mehnat bozoriga moslashuvi murakkab kechmoqda. Davlat tomonidan yaratilgan mexanizmlar amaliy jihatdan yetarlicha samarali ishlamayotgani takroriy migratsiya siklini kuchaytirmoqda. 2022-yilda BMTDning o'tkazgan so'rovi natijalari shuni ko'rsatdiki, qaytib kelgan migrantlarning asosiy qismini mehnat bozorida barqaror o'ringa ega bo'lmagan va ijtimoiy xizmatlardan foydalana olmagan fuqarolar tashkil etadi. Ularning ko'pchiligi vaqtinchalik ishlar bilan band bo'lib, doimiy daromad manbaiga ega emas.

So'rovnomna natijalariga ko'ra:

- qaytib kelgan migrantlarning 41 foizi hamon ishsiz;
- migrantlarning 37 foizi qaytib kelganidan so'ng kamida bir marta ijtimoiy yordam so'rab murojaat qilgan;
- migrantlarning 19 foizi chet elda kasbiy malakaga ega bo'lgan, biroq bu malaka rasman tan olinmagan [7].

#### Foydalanilgan adabiyotlar (Литература/ References):

1. International Migrant Stock 2024: Origin
2. <https://www.un.org/development/desa/pd/content/international-migrant-stock>.
3. <https://www.migrationdataportal.org/resource/key-global-migration-figures>
4. <https://cbu.uz/upload/medialibrary/a53/wn6gcejpkxphv2v4guajin4x01h7iyxa/Yillik-hisobot-2024.pdf>
5. World migration report
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga ketayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini hisobga olishni takomillashtirish to'g'risida"gi 97-son qarori.
7. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi yillik hisoboti
8. International economics . Thomas.Puge, 16 edition. New York

Bu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, qaytib kelgan migrantlarning aksariyati barqaror ish bilan ta'minlanmagan, ijtimoiy himoya tizimidan to'liq foydalana olmaydi va ularning chet elda orttirgan salohiyatidan to'liq foydalanilmayapti. Natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda mehnat migratsiyasi siyosati nafaqat tashqi bandlik nuqtai nazaridan, balki reintegratsiya (qaytib kelgan migrantlarni jamiyatga qayta moslashtirishga) nuqtai nazaridan ham chuqur qayta ko'rib chiqilishi lozim. Agar bunday muammolar o'z vaqtida hal etilmasa, qaytib kelgan migrantlarning jamiyatga to'liq moslashishi qiyinlashadi, ular qashshoqlikka tushib qolishi yoki yaxshiroq imkoniyatlar izlab, migratsiyani davom ettirishga majbur bo'lishi mumkin.

Migrantlarning 19 foizi chet elda kasbiy malakaga ega bo'lgan, ammo bu malaka rasman tan olinmagan. Ushbu ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, qaytib kelgan migrantlarning aksariyati barqaror ish bilan ta'minlanmagan, ijtimoiy himoya tizimidan to'liq foydalana olmaydi, ularning xorijda orttirgan salohiyatidan to'liq foydalanilmaydi. Natijalar shundan dalolat beradiki, O'zbekistonda mehnat migratsiyasi siyosati nafaqat tashqi bandlik nuqtayi nazaridan, balki reintegratsiya (qaytib kelgan migrantlarni jamiyatga reintegratsiya qilish) nuqtayi nazaridan ham chuqur qayta ko'rib chiqilishi lozim. Agar bunday muammolar o'z vaqtida hal etilmasa, qaytib kelgan migrantlarning jamiyatga to'liq moslashishi qiyin bo'ladi, ular qashshoqlikka tushib qolishi yoki yaxshiroq imkoniyatlarini izlab, migratsiyani davom ettirishga majbur bo'lishi mumkin.

Afsuski, migrantlarni o'qitish va qayta tayyorlash jarayoni samarali emas, qabul qiluvchi tomonlarning ish beruvchilari ehtiyojlarini hisobga olish lozim. Migratsiya jarayonlarini tartibga solishning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirildi, biroq qaytib kelgan migrantlarning taqdim etilgan imtiyozlar, shartlar va afzalliklar to'g'risida xabardorlik darajasi yetarli emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilar tavsiya etiladi:

- aholini ro'yxatga olishni tashkil etish va o'tkazish jarayonida migratsiya muammolarini o'rganishning ilg'or xorijiy tajribasini inobatga olish lozim. Olingan ma'lumotlar yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash, xususan, migrantlar, ayniqsa ayollarni samarali qayta integratsiya qilish maqsadida uzoq muddatli prognozlar va maqsadli dasturlar uchun asos bo'ladi.

- iqlim o'zgarishi ta'sirini, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish hamda axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt rolini oshirish muhimligini, shuningdek, jahon demografik tendensiyalarini hisobga olgan holda, chet elda ishlashni xohlovchilar uchun muhandislik, axborot, qishloq xo'jaligi texnologiyalari, arxitektura, qurilish, tibbiyot, ijtimoiy ish va boshqa talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim berishni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bunda mehnat migrantlarini, jumladan O'zbekistondan kelganlarni jalb qilishdan manfaatdor bo'lgan ilg'or xorijiy kompaniyalarning talabini o'rganish asosida ish olib borish kerak. Xorijda munosib bandlikni ta'minlash uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar va imkoniyatlarni keng targ'ib qilgan holda migrantlarni o'qitish va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish lozim.

<sup>4</sup> Vazirlar Mahkamasining "Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga ketayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini hisobga olishni takomillashtirish

to'g'risida"gi 97-son qaroriga muvofiq o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari bo'yicha hisoblangan.